



ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

МАВЗУСИДАГИ ИЛМИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯ ТЎПЛАМИ

27 АПРЕЛЬ
№1 2020

Конференция
шўъбалари:

1. Аниқ фанлар
2. Табиий фанлар
3. Техника фанлари
4. Педагогика фанлари



www.openscience.uz

SCIENCE AND EDUCATION

SCIENTIFIC JOURNAL

ISSN 2181-0842

ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМНИНГ РИВОЖЛАНИШ

ИСТИҚБОЛЛАРИ

БИРИНЧИ КОНФЕРЕНЦИЯСИ ТЎПЛАМИ

27 АПРЕЛЬ 2020 ЙИЛ

(1-ҚИСМ)

PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE

AND EDUCATION

PROCEEDINGS OF FIRST CONFERENCE

27 APRIL 2020

(PART-1)

SCIENCE AND EDUCATION

SCIENTIFIC JOURNAL

Executive Secretary

Tusmatova Nozima Inomovna

Editorial board

Z.Yaxshieva

Jizzakh state pedagogical institute, doctor of chemical sciences

B.Qushimov

Kokand branch of tashkent state technical university, doctor of technical sciences

Sh.Akramova

Military-technical institute of the national guard, doctor of pedagogical sciences

B.Sultonov

Tashkent pharmaceutical institute, doctor of technical sciences

A.Sidiqov

Tashkent institute of chemical technology, doctor of chemical sciences

B.Kucharov

Institute of general and inorganic chemistry of the academy of sciences, doctor of technical sciences

I.Eshmetov

Institute of general and inorganic chemistry of the academy of sciences, doctor of technical sciences

M.Abdullaev

Andijan state university, doctor of historical sciences

N.Jiyanova

Tashkent financial institute, candidate of economic sciences

X.Qobulov

Tashkent financial institute, candidate of economic sciences

U.Akbarov

Kokand state pedagogical institute, candidate of physical and mathematical sciences

A.Nabiev

Tashkent institute of chemical technology, PhD in technical sciences

M.Voxidova

Tashkent state institute of oriental studies, PhD in economics

Масъул котиб

Тусматова Нозима Иномовна

Тахририят

З.Яхшиева

Жиззах давлат педагогика институти, кимё фанлари доктори

Б.Кушимов

Тошкент давлат техника университети Қўқон филиали, техника фанлари доктори

Ш.Акрамова

Миллий гвардия ҳарбий-техник институти, педагогика фанлари доктори

Б.Султонов

Тошкент фармацевтика институти, техника фанлари доктори

А.Сидиқов

Тошкент кимё-технология институти, кимё фанлари доктори

Б.Кучаров

Фанлар академияси Умумий ва ноорганик кимё институти, техника фанлари доктори

И.Эшметов

Фанлар академияси Умумий ва ноорганик кимё институти, техника фанлари доктори

М.Абдуллаев

Андижон давлат университети, тарих фанлари доктори

Н.Жиянова

Тошкент молия институти, иқтисод фанлари номзоди

Х.Қобулов

Тошкент молия институти, иқтисод фанлари номзоди

У.Акбаров

Қўқон давлат педагогика институти, физика-математика фанлари номзоди

А.Набиев

Тошкент кимё технология институти, техника фанлари PhD

М.Вохидова

Тошкент давлат шарқишунослик институти, иқтисодиёт фанлари PhD

38.	Karimullaeva Marziya Usnatdinovna QAWIN SAQLAWDIN AHMIYETI HAM SAQLAW USILLARI	150
39.	Irgasheva Xurshida Murodovna, Irgasheva Munira Murodovna, Obidova Fotima Avazbek qizi KO'RISH ANALIZATORI FAOLIYATINING AHAMIYATI	152
40.	Ochilov U.A. ARG'UVON (CERCIS SILIQUASTRUM L.) URUG'LARINING UNUVCHANLIGI	154
41.	Toshmatova Shoiraxon Ruziyevna BUGUNGI KUNDAGI BIOZARARLANISH MUAMMOSI-INSON FAOLIYATI DOIRASIDAGI MUHIM MUAMMO	157
42.	Н.И.Файзуллаев., С.Ю.Бобомуродова., Д.А.Холмуминова НЕФТЬ ЙЎЛДОШ ГАЗЛАРИДАН АРОМАТИК УГЛЕВОДОРОДЛАР ОЛИШ	161
43.	Абдуғаниев Ойбек Абдухамидович СИРДАРЁ ДАРЁСИ ЎРТА ОҚИМ СУВ ҲАВЗАЛАРИ STIZOSTEDION LUCIOPERCA (ОҚ СЛА) БАЛИҚЛАРИНИНГ DIPLOSTOMUM SPATHACEUM ТРЕМАТОДАСИ БИЛАН ЗАРАРЛАНИШИНИ	173
44.	Mavlonova Mahbuba Islomovna, Turobov Zafar Qiyomovich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING O'RMON EKOTIZIMIDAN BARQAROR VA ENTIYOTKORLIK BILAN FOYDALANISH	176
45.	Азамов Акбархон, Қирғизов Абдумўмин ИССИҚХОНАЛАРДА САБЗАВОТ МАХСУЛОТЛАРИНИ ЕТИШТИРИШДА ЎРГИМЧАККАНАГА ҚАРШИ ОЛТИНКЎЗНИ ҚЎЛЛАШ	179
46.	Muminov Islomjon Arabboyevich, Abdurasulova Gulsanamhon Mirzohidjon qizi, Yoqubov Bekzodbek Shavkatjon o'g'li QO'ZG'ALISHLAR NAZARIYASI VA GRIN FUNKSIYASI	183
47.	R.M.Ibadov, S.N.Murodov, A.A.Yaxshimurodov YANG-MILLS MAYDONI BILAN BOG'LANGAN EYNSHTEYN TENGLAMALARINING YUMRONQOZIQLARIGA OLIV KELUVCHI YECHIMLARI	186
48.	Сарорбек Сувонкулов Санжар ўғли ГЛОБАЛ ИҚЛИМ ЎЗГАРИШИ ДАВРИДА ПИСКОМ ДАРЁ ҲАВЗАСИ ГИДРОЛОГИК РЕСУРСЛАРИНИ БАҲОЛАШ	189
49.	Сайдуллаева Х.Т., Абдурахманова У.К., Эсонов Р.С, Давлатов Р.М., Ғофуров М.Б. 8-ОКСИХИНОЛИННИНГ ГЛИЦИРРИЗИН КИСЛОТАСИ ВА УНИНГ МОНОАЛМАШГАН ҲОСИЛАСИ БИЛАН ЎЗАРО ТАЪСИРИ	195
50.	Ruslan Allayorov TOG'LI HUDUDLAR GEOEKOLOGIK TADQIQOTLAR OBYEKTI SIFATIDA	201
51.	D.M.Ma'murjonova, F.T.Nasriddinova TOK BARGINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI	204
52.	Turenova Aziza KISLOROD TABIIYATDA KEN'G TARQALGAN ELEMENT	207
53.	J.Q.Umarova, Xamroyeva Madina VILOYATDA PAHTACHILIK ISTIQBOLINI BELGILOVCHI G'O'ZA NAVLARINI GENETIK QONUNLAR ASOSIDA MORFOBIOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH	213
54.	Zaripova Xurshida Ubaydulloyevna SHIMOLIY AMERIKA IQLIMI, ICHKI SUVLARI	217

TOG‘LI HUDUDLAR GEOEKOLOGIK TADQIQOTLAR OBYEKTI SIFATIDA

Ruslan Allayorov

allayorov_1992@mail.ru

Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumanidagi 68-sonli DIUMI

Annotatsiya: Maqolada tog‘li hududlar geokologik tadqiqotlar obyekti sifatida qaralib, qator geokologiya fanining obyektiga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy ishlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: geokologiya, landshaft, ekotizim, geotizim, geokotizim, geoeokologik muammo, geokologik vaziyat.

Dunyo mamlakatlarini tashvishga solayotgan global isish ta’sirida cho‘llashish jarayonining tezlashishi, muzliklarning erishi, qurg‘oqchilik, o‘rmon yong‘inlari, suv toshqinlari kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Havo harorati ortishi suvga bo‘lgan ehtiyojning ham ortishiga, landshaft-ekologik sharoitning o‘zgarishiga olib kelmoqda. Bu esa bir qancha geokologik muammolarni vujudga keltirishi va geotizimlarning tabiiy geografik xususiyatlarini o‘zgartirishi mumkin.

So‘nggi bir necha o‘n yillik mobaynida tabiatga bo‘lgan keskin ta’sirning ortishi geokologik vaziyatni murakkab holatga olib kelmoqda. Shu bois hududlarning jumladan, tog‘li hududlar tabiatidan oqilona foydalanish, geokologik vaziyatlarni baholash va muammolarni oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Xorijda nazariy va amaliy geokologik muammolar bilan Troll K. (1939, 1968), Neef E. (1974), Barsh X., Rixter G. (1976), Smirnov L.E. (1982), Risser Paul G. (1987), Boer R.J.de (1988), Solon Y. (1989), Seliverstov E.P. (1990), Avessalomava I.A. (1992), Pozdeyev V.F. (1998), Golubyev G.N. (1999), Vronskiy V.A. (2002), Isachenko A.G. (2003), Petrov K.M. (2004), Morachevskiy V.G. (2004), Egorenkov L.I., Kochurov B.A. (2005), M.D.Grodzinskiy, A.A.Chibilov kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan. O‘zbekistonda nazariy geokologik ishlar bilan Abdullayev S.I. (2006, 2013), Abdulqosimov A.A. (2013,) A.A.Rafiqov (1992, 1999), Nazarov I.Q. (2002, 2012, 2013), Nig‘matov (2005, 2006, 2017) kabi olimlar shug‘illanishgan..Nazarov A.S (1991), Xodjimatov A.N. (1996), Qurboniyazov A.K. (2001), Usmanova R. (2001), Allanazarov R.J. (2002), Nazarov A.A. (2004), Amanbayeva Z.A. (2004), Hamidov A.A. (2006), Abdug‘aniyev O.I. (2007), Abbasov S.B. (2007), Alimqulov N.R. (2008), Sharipov Sh.M. (2011) kabi olimlarning ishlari amaliy geokologik tadqiqotlar hisoblanadi.

Geokologiya fanining tadqiqot *obyekti* va qanday hududlar geokologik tadqiqotlar markazida bo‘lishi to‘g‘risida turlicha fikrlar mavjud.

Troll K., Delkurt P., Rixling A. kabi olimlarning fikricha, geokologiyaning obyekti – landshaft; Isachenko A.G., Kochurov B.I., Timashev I.E., Chigarkin A.V., Rafiqov A.A. va boshqalarning fikricha, geokologiyaning obyekti – geotizim; R.Forman va M.Gordinlar bo‘yicha ekotizim hisoblanadi.

K.Troll fikricha, *landshaft ekologiyasi* (geokologiya) „landshaftning muayyan qismidagi tirik turkumlar va ularning muhiti orasidagi o‘zaro munosabatlarga bog‘liq bo‘lgan asosiy majmua (kompleks)larni o‘rganish bilan shug‘ullanishi lozim“ (K.Troll, 1972). U landshaft ekologiyasining obyektini yer yuzasidagi tabaqalashuvni ifodalaydigan tabiiy hududiy majmua (landshaft)lar hamda muayyan tabiiy hududiy majmuani band etgan senozlar va ekotoplar tashkil etadi, deb tushunadi.

R.J.Boer (1988)ning fikricha, *landshaftlar ekologiyasi* geografik nuqtayi nazardan qaraganda yer yuzasidagi muayyan joylarda abiotik va biotik omilar orasida aloqalar tizimini o‘rganadigan fan bo‘lib, bu joylar integral, majmuaviy hosilalar sifatida qaralishi lozim.

S.V.Lavrov (1989) geokologik tadqiqotlarning strategik maqsadi jamiyatni hududiy tashkil etish maqsadlari uchun atrof-muhitni hududiy tashkil etishdan iborat deb hisoblaydi.

K.M.Petrov (1993) geokologiyani geografik, biologik va ijtimoiy ishlab chiqarish tizimlarining o‘zaro ta’siri to‘g‘risidagi fandır deb hisoblaydi. Unga ko‘ra, zamonaviy (umumiy) geokologiya tor ma’nodagi geokologiya yoki landshaft ekologiyaga hamda muayyan geografik sharoitlardagi inson faoliyatining uyg‘unlashish yo‘llarini belgilaydigan sotsial ekologiyaga ajratiladi.

A.N.Nig‘matov, N.G.Shamuratovalar (2006) fikricha, geografik ekologiya (geokologiya) geografik qobiqda (geotizimda) sodir bo‘layotgan tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va hattoki, huquqiy geografik jihatlarni tatqiq etadi.

I.Q.Nazarov (2013) mazkur fanning o‘rganish obyekti turli ko‘lamdagi tabiiy majmualar, ma’muriyat va siyosiy-ma’muriy hududlar yoki geotizimlardir deb biladi. U har bir hudud ekologik mazmun-mohiyatga egaligini, ular ekologik yondashuv asosida o‘rganilishini qayd etadi.

Yana bir guruh olimlar (Abdullayev S.I., Janqobilov I.X., 2006; Sharipov Sh., 2009; Avazov Sh. va b., 2019) ning fikricha, zamonaviy geokologiyaning obyekti *geokotizim* hisoblanadi. Avazov Sh. va b. (2019), geokotizim deyilganda, odam xo‘jalik faoliyatining bevosita va bilvosita ta’siri ostida bo‘lgan tabiiy tizim, tabiiy o‘zgartirilgan, o‘zaro bog‘liq uch birikmali (tabiat, aholi, xo‘jalik) tabiiy-antropogen tizim va odam tomonidan sun’iy bunyod etilgan (vujudga keltirilgan) antropogen tizim tushunilishini, yozadi.

Ma’lumki, tog‘li hududlar geomorfologik jihatdan murakkab bo‘lgani uchun ham ularda kechadigan geodinamik jarayonlar va hodisalar juda tez kechadi hamda

o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi. Bu jarayonlar esa o'z navbatida, tog'larning tabiiy sharoiti va geokologik holatini belgilab beradi. Lekin keyingi yillarda tog'larning inson xo'jalik faoliyatining asosiy obyektlaridan biriga aylanib borayotganligi sabab, ulardagi atrof-muhit holatini tabiiy omillardan ko'ra antropogen omillar ko'proq belgilaydigan bo'lmoqda. Tog'li hududlarning relyefi juda „og'ir“ga xilma-xil shaklda bo'lgani uchun ham ularda tabiiy jarayonlar va hodisalar, turli tuman va jadal suratlarda kechishi bilan voha va tekisliklardan keskin farq qiladi.

Yuqoridagi fikrlar kelib chiqib, ayta olish mumkinki, *tog'lar* – bir butun, shu bilan birgalikda, tekislik (ya'ni qo'shni geotizimlar) bilan doimiy aloqada bo'ladigan, muayyan geografik sharoitlarga ega, inson faoliyati bilan o'zaro uyg'unlashgan tabiiy, tabiiy-antropogen, antropogen tizim sifatida geokologik tadqiqotlarning muhim obyekti bo'la oladi.

Umuman olganda, tog' landshaftlarini bir butun yaxlit tabiiy hududiy majmua va tadrijiy o'zgaruvchi geotizim sifatida qarash, tog'larni ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, tarbiyaviy, estetik jihatdan yuksak mavqeiga ega bo'lgan tabiiy geografik obyektligini hisobga olish lozim. Tog'larda majmuali geografik, geokologik, biogeografik tadqiqotlarni olib borish va bunday tadqiqot natijalaridan samarali foydalanish mamlakatimiz iqtisodiyoti va jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulqosimov A.A., Abdullayev S.I. Geokologiyaning ayrim nazariy va metodologik muammolari xususida // Fan chorrahalarida. Geografiya. Ilmiy to'plam. Samarqand: SamDU nashri, 2013. B. 54 – 67.
2. Avazov Sh., Saydamatov F., Allaberganov H. „Biosfera (ekosfera) va odam (jamiyat)“ tizimida geokologiya va geokologik o'lkashunoslik. Monografiya. – T.: „INNOVATSIYO-ZIYO“, 2019. – 373 b.
3. Amanbayeva Z.A. Tog'li hududlar – geokologik tadqiqotlar markazida // Geografiya fani va ta'limning zamonaviy muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: TDPU, 2015. – B. 34 – 35.
4. Rafiqov A.A., Sharipov Sh.M. Geokologiya. – T.: Adib, 2014. – 104 b.
5. Rafiqov A.A., Xodjimatomov A.N., Alimqulov N.R., Xolmurodov Sh.A. Geokologiya asoslari. – T.: TDPU, 2015. – 112 b.
6. Nazarov I.Q. Geografiya fanining asosiy muammolari. – T.: Muharrir, 2013. – 212 b.